

Kreativ kompetensiyalarni raqamli muhitda shakllantirish: Hamshiralik ta'limining zamonaviy modeliga yo'l

Ibodova Umida Shuhratillo qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy sog'liqni saqlash sohasida hamshiralarning kreativ kompetentligining o'sib borayotgan ahamiyatini va uni raqamli ta'lim orqali rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganadi. Maqolada raqamli ta'lim platformalari, simulyatsiyalar, interaktiv resurslar va boshqa innovatsion vositalar hamshiralik talabalarining muammolarni nostandart hal qilish, yangi g'oyalar yaratish va bemorlarga individual yondashuv qobiliyatlarini shakllantirishdagi roli tahlil etiladi. Shuningdek, raqamli ta'limning afzalliklari, jumladan, o'quv jarayonining moslashuvchanligi, qiziqarli va interaktivligi, hamda kreativlikni rivojlantirish uchun yaratilgan maxsus metodikalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, raqamli ta'lim, hamshiralik ta'limi, interaktiv metodlar.

Abstract. This article explores the growing importance of nurses' creative competence in the modern healthcare sector and the opportunities for its development through digital education. The article analyzes the role of digital education platforms, simulations, interactive resources, and other innovative tools in shaping nursing students' abilities to solve problems non-standardly, generate new ideas, and approach patients individually. It also examines the advantages of digital education, including the flexibility, engaging and interactive nature of the learning process, as well as specific methodologies designed to foster creativity. In conclusion, the article discusses the prospects for integrating digital education into nursing curricula and the role of creativity in the professional activities of future nurses.

Keywords: creativity, digital learning, nursing education, interactive methods.

Аннотация. Данная статья исследует растущее значение креативной компетентности медсестер в современном секторе здравоохранения и возможности ее развития посредством цифрового образования. В статье анализируется роль цифровых образовательных платформ, симуляций, интерактивных ресурсов и других инновационных инструментов в формировании у студентов-медиков способности нестандартно решать проблемы, генерировать новые идеи и индивидуально подходить к пациентам. Также рассматриваются преимущества цифрового образования, включая гибкость, увлекательность и интерактивность учебного процесса, а также специальные методики, разработанные для развития креативности. В заключение статья обсуждает перспективы интеграции цифрового образования в учебные программы медсестер и роль креативности в профессиональной деятельности будущих медицинских работников.

Ключевые слова: креативность, цифровое образование, сестринское образование, интерактивные методы.

Kirish. Hozir butun dunyo ta'lim tizimida kreativlikka alohida urg'u berilyapti. Chunki kreativlik ayni paytda har bir inson uchun eng kerakli qobiliyatlardan biriga aylanib ulgurdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir soha vakili uchun kreativlik, kreativ fikrlash bugungi global zamon uchun ahamiyatli omil bo'lib bormoqda.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Shu o'rinda D.Pattining quyidagi fikrini alohida keltirib o'tish maqsadga muvofiq: "Hozirda o'quv mashg'ulotlarida yetishmaydigan eng ahamiyatli pedago gik omil – bu ta'lim jarayoni faol ishtirokchilarining kreativligidir" deb izoh beradi [3. 54 b.].

Xo'sh kreativlikning o'zi nima? Nega bu qobiliyatga bugun shunchalik muhtojmiz?

Kreativlik bu shunchaki san'atkorona qobiliyat emas. Bu – yangi g'oyalarni o'ylab topish, mavjud muammolarga original yechimlar izlash, nostandart vaziyatlarda tez va samarali harakat qilish qobiliyatidir. Hamshiralik kasbida kreativlik bemorning holatini yaxshilash, ish jarayonini optimallashtirish, jamoada samarali muloqot o'rnatish kabi ko'plab sohalarda o'zini namoyon qilishi mumkin.

Bu atamaga ilk marta D.Simpson tafakkurning nostandart usuli deya ta'rif bergan. Tafakkurning ananaviy qoliblardan chetga chiqib, o'ziga xos orginal qarorlar qabul qilishga qodirlik kreativ fikrlashning asosi hisoblanadi.

N.Drujinin ta'kidlashicha "Kreativlik– shaxsning kundalik turmush sohalaridagi iqtidoriga bog'liq bo'lmagan holdagi faollik va ijodkorlik qobiliyati." [4. 74b]

Ko'pincha kreativlik va ijodkorlik sinonim ya'ni bir manodagi so'z hamda bir- biriga bog'liq so'z deb o'ylashadi, ammo ko'pchilik olimlarning fikricha ijodkorlik yangi narsalarni yaratishga yo'naltirilgan jarayon, kreativlik esa shaxsning ilmiy intellektual salohiyati, uning boy ichki psixologik resursi, kundalik hayotda, ishda va turli joylarda yuzaga keladigan har xil muammolarni ijobiy hal qilishning yangi samarali tezkor yo'llarini izlab topa olish qobiliyatidir.

Kreativ shaxs bo'lish, bizning misolimizda esa, kreativ talaba bo'lish - bugungi dunyoda afzalliklarga ega bo'lish, masalan, boshqa talabalar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo'lish, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy tarzda chiqib ketish demakdir. Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llash, va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rin tutadi deb yozadi o'zing maqolasida I.N.Saydullayeva[2].

Mamlakatimizda ta'limning istiqbollari va shaxsning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish, uning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati olib borayotgan siyosatda yoshlarning unib o'sishi uchun barcha zaruriy shartsharoitlarni yaratishga muhim ahamiyat berilmoqda. Prezidentimizning: "Yoshlarimiz mustaqil va kreativ fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan shaxslar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1. 592 b] degan fikrlari hozirgi globallashtirish davrida shaxsni ochiq ijtimoiy muhitda kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilanganidan dalolat beradi. Natijada, oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati kengaytirildi.

Asosiy qism. Kreativ fikrlash – insonning yangilik yaratish, muammolarni noodatiy usullarda hal qilish va ijodiy tafakkur qilish qobiliyatidir. U shaxsiy, ijtimoiy va professional sohalarda muvaffaqiyat qozonish uchun muhim vositadir. Uni rivojlantirish uchun maxsus vositalar va usullar qo'llaniladi, bu esa inson tafakkurini yanada kuchli va samarali qiladi.

Kreativ fikrlash orqali:

- Yangilik yaratish qobiliyatini oshirish;
- Muammolarga har xil nuqtai nazardan qarash;
- Chegaralangan doiradan tashqarida fikrlash;
- Innovatsion g'oyalar bilan ijtimoiy va texnologik rivojlanishga hissa qo'shish mumkin.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Oliy o'quv yurti, ayniqsa tibbiy yo'nalishidagi o'quv yurtining talabalari esa tibbiy fikrlashigina emas, keng doiradagi tibbiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, kasalliklar ko'payish tendensiyalariga baho berish, bu o'zgarishlarni kelajakda insoniyatga ta'siri qanday bo'lishini his qila bilishi, ko'z o'ngiga keltira olishini o'rganishi zarur.

Buning uchun esa tibbiy fanlarni chuqur bilish talab qilinadi. Insonning murakkab tuzilish, turli kasalliklar va unga mos parvarishlashni aks ettiruvchi bu fanlarni o'rganish uchun to'g'ri metod va usullar tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

COVID-19 pandemiyasi hamshiralik sohasiga katta ta'sir ko'rsatdi, yangi tadqiqot mavzularini yuzaga chiqardi va mavjud tendensiyalarni tezlashtirdi. Pandemiya davrida sog'liqni saqlash tizimiga tushgan og'ir yuk hamshiralarning jamoat salomatligi va inqirozga qarshi kurashdagi muhim rolini namoyon qildi. Sog'liqni saqlash sohasidagi tezkor o'zgarishlarni inobatga olgan holda, hamshiralik ta'limi kelajak avlod hamshiralarni yanada yaxshiroq tayyorlash uchun transformatsiyadan o'tmoqda.

Shularni inobatga olgan holda hamshiralik ta'limida kreativlik juda muhim va dolzarbdir. Chunki hayot har doim ham protokollar va standartlar bo'yicha ketmaydi. Ba'zan shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, bunda tayyor yechimlar ish bermaydi. Kreativ fikrlaydigan hamshira bunday vaziyatlarda o'z bilim va tajribasiga tayanib, yangi, samaraliroq yo'llarni topa oladi. Masalan:

- Har bir bemorning o'ziga xos ehtiyojlari va xususiyatlari bor. Kreativ hamshira ularning psixologik holatini tushunib, davolash va parvarish jarayoniga ijodiy yondasha oladi.
- Tibbiyotda kutilmagan muammolar tez-tez yuzaga keladi. Kreativ fikrlash hamshiraga bunday muammolarni tez va samarali hal qilishga yordam beradi.
- Kreativ hamshiralalar ish jarayonidagi kamchiliklarni ko'ra biladi va ularni bartaraf etish uchun yangi, innovatsion g'oyalar taklif etadi.
- Kreativlik jamoa a'zolari o'rtasida fikr almashinuvini rag'batlantiradi va yangi, umumiy yechimlarni topishga yordam beradi.

Bugungi kunda hamshiralarning kreativligini oshirish uchun avvalo ularni o'qitish jarayoniga aloida ahamiyat berishimiz lozim. Bu jarayonni raqamli ta'lim ya'ni zamonaviy axborot vositalari ancha oson va qulaylashtirmoqda.

Raqamli ta'lim muhiti – bu o'quvchilarga va o'qituvchilarga turli raqamli texnologiyalarni qo'llash, ma'lumotlar almashish, o'quv jarayonini avtomatlashtirish va interaktiv o'quv metodlarini taqdim etuvchi kompleks tizimdir. Bu muhitda o'qituvchilar nafaqat ta'lim berish, balki o'z o'qituvchilik ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishlari va o'quvchilarga sifatli ta'lim berishlari lozim.

Tibbiyot kollejlari va oliygohlarida talabalarning kreativ kompetentligini oshirish uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin:

- Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (Case studies): Talabalarga real hayotdagi murakkab tibbiy vaziyatlar taklif etiladi va ular bu muammolarni hal qilish uchun ijodiy yechimlar izlashga undaladi.
- Rollik o'yinlar (Role-playing): Talabalar turli xil tibbiy xodimlarning rollarini o'ynab, bemorlar va hamkasblar bilan muloqot qilishning ijodiy usullarini o'rganadilar.
- Guruhli loyihalar: Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, ma'lum bir tibbiy muammoni hal qilish yoki ish jarayonini takomillashtirish bo'yicha loyihalar ustida ishlaydilar. Bu ularning hamkorlik qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

- Muzokaralar va munozaralar: Turli xil tibbiy mavzularda munozaralar o‘tkazish talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.
- San'at va gumanitar fanlarni integratsiya qilish: Tibbiyotga san'at (musiqa terapiyasi, rang terapiyasi) va gumanitar fanlarni (psixologiya, sotsiologiya) integratsiya qilish talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularga bemorlarga nisbatan chuqurroq empatiya hissini shakllantirishga yordam beradi.
- Innovatsion texnologiyalardan foydalanish: Virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt (SI) kabi zamonaviy texnologiyalar talabalarga xavfsiz muhitda turli xil tibbiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish va ijodiy yechimlar izlash imkoniyatini beradi.
- Mentorlik va tajriba almashinuvi: Tajribali hamshiralalar yosh mutaxassislar bilan o‘zlarining kreativ yondashuvlari va muvaffaqiyatli tajribalari bilan bo‘lishishlari mumkin.

Xulosa

Bugungi sog‘liqni saqlash tizimida kreativ kompetentlikka ega bo‘lgan hamshiralarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. O‘quv jarayonida kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim usullarini qo‘llash kelajakdagi hamshiralarning professional o‘shishiga va bemorlarga sifatli xizmat ko‘rsatishiga muhim hissa qo‘shadi. Unutmaylikki, har bir hamshira o‘ziga xos ijodiy salohiyatga ega va uni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali tibbiyotda yangi ufqlarni ochish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -592 b.
2. Saydullayeva N.I. “Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari” Uslubiy qo‘llanma Toshkent 2022).
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Дружинин В.Н. Психология и психодиагностика общих способностей. –Москва: Наука, 1994. –С. 74.
5. Ibodova U.Sh, “Ta’lim jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘rni, afzalligi va kamchiliklari” Respublika ilmiy-nazariy anjumanining materiallari to‘plami (2025 yil 26- mart).
6. Ibodova U.Sh “Hamshiralarni o‘qitishda kreativ va tanqidiy fikrlash ”Pedagogik mahorat jurnali 2025 yil mart.